

INSTITUTDA 2025/2026 O'QUV YILI KUZGI SEMESTRIDA O'TILGAN FANLAR BO'YICHA YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARI BO'LIB O'TMOQDA

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 2025/2026-o'quv yili kuzgi semestrida o'tilgan fanlar bo'yicha yakuniy nazorat jarayonlari davom etmoqda.



Ushbu jarayonlarni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, shuningdek, professor-o'qituvchilar bevosita kuzatib borishmoqda.



Xususan, bugun rektor Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nailishi 1-kurs talabalarining "Ansabl sinfi", Dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalarining "Vokal" fanidan, "Kinoteleopratorlik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalarining "Fotokompozitsiya", Estrada aktyorligi ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalarining "Aktyorlik mahorati" fanlaridan yakuniy nazoratlarida ishtirok etdi.



Ta'kidlash joizki, ustozlar tomonidan ayni damda imtihon topshirayotgan talabalarning yutuqlari e'tirof etilishi barobarida, kelgusi ijodi uchun muhim bo'lgan ko'rsatma va tavsiyalar ham berib o'tilmoqda.



Rektor talaba-yoshlar va professor o'qituvchilar bilan muloqot qilar ekan, bugun yurtimizda san'at va madaniyat rivojiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik yuksak darajada ekanligini qayd etib, oldimizda turgan eng muhim vazifa bu imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda yurtimiz san'ati rivojiga hissa qo'shish ekanligini ta'kidladi.



Yakuniy nazoratlar barcha ta'lim yo'nalishlarida belgilangan tartibda davom etmoqda.

Tyantszin musiq konservatoriyasi tomonidan talabalar uchun onlayn mahorat darsi tashkil etildi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Vokal" kafedrasida Xitoy Xalq Respublikasining Tyantszin musiq konservatoriyasi tomonidan talabalar uchun onlayn mahorat darsi tashkil etildi.



Unda Tyantszin musiqa konservatoriyasi prezidenti Van Xunvey, Vitse-prezident Bao Yan, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazi direktori Fen Ley, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazi direktori o'rinbosari Kun Veyfen, Opera kolleji dekani o'rinbosari Van Zenan, Xalqaro almashinuv va hamkorlik markazining tashqi aloqalar bo'yicha mutaxassisi Chen Lin, Fortepiano bo'limi direktori, shuningdek, akkordeon bo'yicha o'qitish va ilmiy tadqiqotlar seksiyasi rahbari Lyu Juy, Opera kollejining fortepiano yo'nalishi badiiy rahbari Bay Tyanyi, Opera kolleji bakalavriat bosqichi talabasi – Yan Guanlar ishtirok etishdi.



Shuningdek, institutimizdan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yoqubov , "Vokal" kafedrası mudiri, professor Saodat Muzafarova, "Cholg'u ijrochiligi" kafedrası mudiri, dotsent Feruza Hakimova, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası mudiri, dotsent Husniddin Xusanov, shuningdek kafedra professor-o'qituvchilari hamda "Vokal ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi talabalari qatnashdi.



Mahorat darsi jarayonida “Vokal ijrochiligi” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabasi Yag’yayeva Leniyar tomonidan B.Umidjonov musiqasi va Oybek so’zlariga yozilgan “Sendadur ko’zlarim” qo’shig’i hamda Jakomo Puchchinining “Jovanni Skikki” operasidan Laurettaning ariyasi ijro etildi. Pedagog – kafedra dotsenti Nodira Kabulova. Jo’rnavor – Feruza Abdullayeva.



Mahorat darsi yakunida konservatoriya mutaxassisleri tomonidan ijrolar bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi, xususan vokal texnikasi, nafas olish, sahna madaniyati va obraz ustida ishlashga doir maslahatlar bildirildi. Tadbir ishtirokchilari ushbu xalqaro hamkorlik vokal ta'limi sifatini yanada oshirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.



Umid qilamizki, ushbu mahorat darsi talabalarning kasbiy mahoratini oshirish, vokal ijrochiligi sohasida xalqaro tajriba almashishga xizmat qiladi.